

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA O'ZBEK  
XARAKTERINING OCHIB BERILISHI (“O'ZBEKLAR” HIKOYASI  
MISOLIDA)

*Termiz davlat universiteti*  
*O'zbek filologiyasi fakulteti*  
*3-bosqich talabasi*  
*Abdurahmonova Farangiz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan iste'dodli vakili Shukur Xolmirzayevning hajman kichik, ammo mazmunan teran hikoyalarda o'zbek xalqiga xos mentalitet va xarakter xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, “O'zbeklar” hikoyasi misolida yozuvchining milliy ruhni, insoniy fazilat va kamchiliklarni badiiy ifodalash mahorati ochib beriladi. Shuningdek, hikoyalarning kompozitsion tuzilishi, syujeti hamda obrazlar tizimi ilmiy asosda tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, obraz, syujet, qahramon, xarakteristika.

“O'zbek” so'zini etimologik jihatdan tahlil qilganda, u qadimiy “o'ziga bek”, ya'ni “mustaqil hukmdor”, “erkin inson” ma'nolarini anglatadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, ushbu atama XI–XII asrlardan boshlab qo'llana boshlagan. Biroq “o'zbek” tushunchasining mazmuni nihoyatda keng va chuqur bo'lib, uni to'liq ifodalash go'yo cheksiz dengiz tubiga yetishga o'xshaydi. Shu vaqtgacha bu tushunchaga turli ta'riflar berilgan bo'lsa-da, ularning hech biri uning mohiyatini mukammal darajada ochib bera olmagan.

**Annotation:** this article analyzes the mentality and characteristic features typical of the Uzbek people as reflected in the short but meaningful stories of the prominent and talented representative of Uzbek literature, Shukur Xolmirzayev. In particular, using the story “Uzbeks” as an example, the author's artistic mastery in expressing national spirit, human virtues, and shortcomings is revealed. In addition,



the compositional structure, plot, and system of characters in the stories are examined on a scientific basis.

**Keywords:** story, character, plot, protagonist, characterization.

**Аннотация:** В данной статье анализируются особенности менталитета и характерные черты узбекского народа на примере небольших по объёму, но глубоких по содержанию рассказов выдающегося и талантливого представителя узбекской литературы Shukur Xolmirzayev. В частности, на примере рассказа «Узбеки» раскрывается художественное мастерство писателя в передаче национального духа, человеческих достоинств и недостатков. Также на научной основе рассматриваются композиционная структура, сюжет и система образов рассказов.

**Ключевые слова:** рассказ, образ, сюжет, герой, характеристика.

Taniqli o'zbek adibi Shukur Xolmirzayev ham o'z asarlarida o'zbek xalqining xarakterini badiiy tasvirlashga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, "O'zbeklar" hikoyasida o'zbek millatiga xos bag'rikenglik, mehmondo'stlik, saxovat va insoniylik fazilatlarini yorqin ifodalangan. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan qadriyatlaridan biri — mehmonni ulug'lashdir. Xalq orasida "mehmon — otangday ulug'", "mehmon — Xudo mehmoni" kabi hikmatli so'zlar bejiz aytilmagan. Hatto uyda bir burda non bo'lsa ham, uni mehmon bilan baham ko'rish milliy fazilat sifatida qaraladi.

Asarda Botir cho'pon obrazi orqali ana shu fazilatlar jonli tasvirlangan. U juda kamgap bo'lsa-da, uning ichki dunyosi, ruhiyati va insoniy qiyofasi xatti-harakatlari orqali ochib beriladi. Ayniqsa, uzoq shahardan kelgan talabalarga bo'lgan munosabati, ularni bor imkoniyati bilan mehmon qilishga intilishi uning yuksak ma'naviy qiyofasini namoyon etadi.

Hikoyada yana bir muhim obraz — vijdonli yigit timsoli ham e'tiborga loyiq. U o'zbek xonadonidagi og'ir ahvolni tushunib, ortiqcha yuk bo'lishni istamaydi, mehmondorchilikdan o'zini tiyadi. Biroq ayrim talabalar aksincha yo'l tutib, mezbonning imkoniyatini hisobga olmaydilar. Hatto Botir cho'ponning so'nggi molini so'yib yeyishlari ularning ma'naviy qashshoqligini ko'rsatadi. Shunga



qaramay, Botir cho'pon ularga nisbatan yomonlik qilmaydi, aksincha, bag'rikenglik va muruvvat ko'rsatadi. Bu hol o'zbek xalqiga xos ulug'vor fazilatlarning badiiy ifodasidir.

Asar yakunida voqealarni hikoya qiluvchi yigitning ko'ziga yosh keladi. Bu yosh — xorlik yoki ranjdan emas, balki haqiqiy o'zbek xarakterini, uning bag'rikengligi va ulug'ligini ko'rganidan tug'ilgan hayrat va faxr ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev o'z asarlarida nafaqat tabiat tasvirini, balki inson ruhiyatini, milliy xarakter va psixologik obrazlarni yuksak badiiy mahorat bilan ochib bera olgan. Uning "O'zbeklar" hikoyasi orqali "o'zbek" tushunchasining naqadar keng va teran ma'noga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu kabi asarlar o'quvchi qalbida chuqur iz qoldiradi va qayta-qayta mutolaa qilishga undaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: "Шарқ"2009.
2. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: "Шарқ"2020.
3. То'хта Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2002.
4. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.

